

## YANGI O'ZBEKISTON OPERA SAN'ATI

Nurullayev Yaxyobek Farruxovich

Turkiston Yangi Innovatsiyalar Universiteti "Musiqta limi va san'at" yo'nalishi magistranti

Olimov Shirinboy Sharopovich

Ilmiy rahbar: Buxoro Davlat Universiteti professori

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda opera san'atining vujudga kelishi, jumladan 19-asr oxiri 20-asr boshlarida o'zbek operalari musiqali drama, o'zbek mushkeli dramasining rivoji asosida, shuningdek, chet el mumtoz operasining ta'siri ostida shakllanganligi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Opera, san'at, drama, teatr, spektakl, repertuar, musiqiy kompozitsiya.

**Аннотация:** В данной статье описывается возникновение оперы в Узбекистане, в том числе становление узбекских опер в конце 19-начале 20 веков на основе музыкальной драматургии, развитие узбекской мушкели драматургии, а также под влиянием зарубежной классической оперы .

**Ключевые слова:** Опера, искусство, драма, театр, спектакль, репертуар, музыкальная композиция.

**Annotation:** The article describes the emergence of opera in Uzbekistan, including the formation of Uzbek operas in the late 19th and early 20th centuries on the basis of musical dramaturgy, the development of Uzbek musical dramaturgy, and also under the influence of foreign classical opera.

**Key words:** Opera, art, drama, theatre, performance, repertoire, musical composition.

O'rta Osiyoda, asosan O'zbekistonda opera san'ati XIX asrning oxiri, XX asr boshidan rivojlana boshladi. O'zbek operalari musiqali drama rivoji asosida, shuningdek, chet el mumtoz operasining ta'siri ostida yuzaga kelgan. Toshkentga bir nechta 1894-yilda gruzin, 1907-15 yillarda italyan, tatar, rus, ozarbayjon opera guruhlari gastrol safari bilan yurtimizda mehmon bo'lishgani tarixiy manbaalarda keltirilgan. 1918-yildan Toshkentda rus opera teatri o'z faoliyatini boshlagan. O'zbekistonda opera san'atining paydo bo'lishi, rus inqilobidan so'ng qo'shiqchilik va musiqa yo'nalishlarda yuksalish va ko'tarilish imkoniyatlari ochilganday bo'ldi. Kuy va qo'shiqlarimizni atoqli ashulachilarimizdan Muhiddin Qori Yoqubov va rus musiqashunosi Mironov tomonidan bir nechta o'nlab vokal ashulalarimiz notaga olinib chop ettirildi. 1918-yilning 1-sentabri O'zbekistonda opera teatri tashkil topgan kun hisoblanadi. O'sha kuni xalq Konservatoriyasida rus kompazitor Aleksandr Sergeyevich Dargomijiskiyning "Rusalka" operasi qo'yildi. Keyinchalik boshqa operalar ham sahnalashtirila boshlandi. Teatr uchun kadrlar tayyorlash studiyasi ish olib bordi. Bakudagi teatr texnikumida opera xonandalari, aktyorlar o'qiy boshladi.

O'zbek milliy vokal qo'shiqchiligi ancha munozaralar va bahslarga sabab bo'lgani hech kimga sir emas. Moskva Konservatoriysi qoshidagi o'zbek studiyasi tashkil topib unga Halima Nosirova, Muxtor Ashrafiy, B.Inoyatov, Nasim Hoshimov va boshqalar o'qiy boshladi. Ayrim nazariyachilar milliy operada bo'g'iz bilan kuylashni saqlab qolish zarurligini ya'ni o'zbek xalq qo'shiqlariga xos kuyash usulini o'zgartirmaslik kerakligini isbotladilar. Ammo sekin-asta har qanday opera qo'shig'i o'zining butun dunyo opera madaniyatiga xos qanaqadir umumiy xususiyatlarga ham ega bo'lishi kerak deb hisoblandi.

Albatta har qanday millatga mansub qo'shiqchi uchun nafas olib kuylash muhimligini ta'kidlab mashhur qo'shiqchi G'ulom Abdurahmonov shunday degan edi: "Milliy vokal uslubi nutqning xususiyatlariiga bog'liq bo'ladi. Eng asosiysi tilning nozikligini his etishdir. Har qaysi millatga o'zining nutq uslubi va o'ziga xos intonatsiya xususiyatlari bo'ladi. Mana shularni qo'shiqda aks ettira olish kerak. Italiya maktablaridan opera tovushini va uning yo'nalishini olish, kuylash usuli esa har bir millatning tiliga mos bo'lishi lozim" (G'. Abdurahmonovning Tamara qiziga yozib olgan xotiralaridan).

O'l kamizda uzoq yillar davomida rus ziyolilarining yashab turganlari, ularning musiqaga, san'atga bo'lgan qiziqishlari natijasida Toshkentda rus opera teatri ochiladi. Opera teatrining tashkil topishida asosiy turkilardan yana biri Italiya opera guruhining 1900-yilda Toshkentga qilgan gastrollari (ijodiy safarlari) bunda asosiy sababchi bo'lgan. Italiyaliklar Toshkentda Verdining "Rigoletto", "Traviata", "Trubadur", Bizening "Karmen", Sharl Gunoning "Faust", Leonkavalloning "Payatsi" kabi dunyoga mashhur operalarini rus ziyolilariga tanishtirganlar. Shu bilan birga rus ziyolilari o'z konsert dasturlarida g'arb va rus klassik kompazitorlarining simfonik asarlarini, turli operalardan parchalarni, simfonik syuitalarni ijro etishlari bilan rus opera teatrining tashkil topishida poydevor tuzganlar. Opera teatrining birinchi spektakllari Dargomojskiyning "Rusalka", P.I.Chaykovskiyning "Yevgeniy Onegin" operalari bo'lgan. Opera janrining keng ommaga tarqalib borgani tufayli rus opera teatri sahnasida Verdining "Rigoletto", Sh.Gunoning "Faust", A.Rubenshteynnning "Demon", Chaykovskiyning "Pikovaya dama", Musorskiyning "Baris Gadunov", Borodinning "Knyaz Igor", Verdining "Traviata", "Aida", "Trubadur", Puchchinining "Bogema", Rossinining "Sevilya sartaroshi" kabi asarları sahna yuzinini ko'rdi. Rus opera teatrining aktyorlari, opera xonandalari, san'atkori lari O'zbekiston viloyatlariga chiqishlar tashkil qilib, opera san'atini o'zbek xalqi orasida targ'ibot eta boshladilar va bu xizmatlar o'zbek milliy operalarini dunyoga kelishiga, O'zbekistonda opera san'atining vujudga kelishida, shu bilan bir qatorda opera maktablarining tashkil topishiga asos bo'ldi.

1918-yil iyul oyida Toshkentda ochilgan Turkiston xalq konservatoriysi O'rta Osiyodagi birinchi musiqa maskani bo'lib, u o'sha yilning aprel oyida tashkil topgan Turkiston Dorilfununing tarkibiga kirgan. 1930-yida Toshkentda Oliy musiqa maktabi ochildi va uni oradan ikki yil o'tgach Toshkent Davlat konservatoriyasiga aylantirildi. Nazariy bahslardan amaliy ishga o'tish munosabati bilan Toshkent Davlat konservatoriyasida o'zbek qo'shiqchilarining vokal tayyorgarligi masalasi vujudga keldi. Qo'shiqlar vokal tayyorgarligi faqat O'zbekistonda musiqali teatr san'atini rivojlantirishga xizmat qiladigan Oliy kasbkorlik ta'limi olish huquqini berib qolmadidi, balki sovet davridagi qo'shiqchilik ijodining asosi ham bo'ldi. Toshkent Davlat konservatoriyasining bastakorlari Kazlovskiy, Mushel, Nadejdin va boshqalarining pedagogik faoliyatları vokal ijodiyotini rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Katta avlodga mansub san'atkori lardan To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Faxriddin Sodiqov, Ikrom Akbarov, Doni Zokirov, Ilyos Hamroyevlar o'sha paytdayoq milliy merosni Ovrupocha musiqa kompazitsiyasining shakllari bilan birlashtirish yo'llarini izlay boshlagan 1929-yilda Muhiddin Qori Yoqubov tashabbusi bilan o'zbek musiqali teatri ishga tushdi. Uning repertuari asosan musiqali dramalardan iborat bo'lgan. Mazkur teatr sahnasida ozbek tilida qo'yilgan birinchi operalar - "Er Targ'in" (E.Brusilovskiy 1937) va "Nargiz" (M.Magamayev 1938)dir. 30-yillarning 2-yarmisidan boshlab birinchi o'zbek operalari vujudga kela boshladidi. Bular S. Vasilenko va M. Ashrafiylarning hamkorlikda yaratgan "Bo'ron" operasi bilan R. Glier va T. Sodiqovlarning "Layli va Majnun" operalari edi. O'zbek opera gruppasi o'zbek musiqali teatri zaminida yuzaga kelib, aynan ushbu operalar bilan o'z faoliyatini boshlagan. Dastlabki o'zbek

operalari o‘zbek va rus kompazitorlarining ijodiy hamkorligi natijasida, hamda O‘zbekistonda ijod qilgan rus kompazitorlarining mahalliy mavzudagi ijodida rivoj topgan.

O‘zbek opera gruppasi o‘zbek musiqali teatr zaminida yuzaga kelib, o‘z faoliyatini kompazitorlar Sergey Vasilenko va Muxtor Ashrafiy hamkorlikda yaratgan “Bo‘ron” operasi bilan bog‘ladilar. Kampozitorlar bu operani 6 oy davomida ijod qilib, 1939-yilning 25-martida tugallaydilar. Operani sahnalashtirishda ancha qiyinchiliklar ham bo‘ladi. Birinchidan, bu yangi janrni sahnada iiro etishda xonandalarga noqulayliklar tug‘diradi, chunki musiqali drama bilan opera orasida katta farq bor edi. Lekin shu bilan birga, milliy o‘zbek og‘zaki an’analari bilan bog‘liq bo‘lgan sahnalar ham ijrochilarga, ham tinglovchilarga maroq bag‘ishlaydi. Asar 1939-yilning iyunida sahna yuzini ko‘rdi. Operani sahnalashtirilishi bu ikki (rus va o‘zbek) xalq orasidagi birodarlikni mustahkamlashga va ikki kompazitor Sergey Vasilenko, Muxtor Ashrafiylarning ijodiy hamkorliklarini timsoli bo‘ldi. Operaning sahna yuzini ko‘rishi, O‘zbekistonning musiqali teatr hayotida katta voqeaga aylandi. Aynan, “Bo‘ron” operasi premyerasidan so‘ng musiqiy dramatik teatr O‘zbek opera va balet teatri nomini olishga sazovaor bo‘ldi. Asosiy rollarni: Halima Nosirova (Norgul), Karim Zokirov (Bo‘ron), Fotima Burxonova (Zebiniso) iじro etganlar. Asarda 1916-yilda Jizzaxda bo‘lib o‘tgan o‘zbek xalqining chor hukumati bilan to‘qnashuvlari o‘z aksini topgan. Qo‘zg‘alon bostirilgan bo‘lsa ham, lekin o‘zbek xalqining ozodlikga chiqish uchun intilishlari asarda asosiy maqsad qilib olingan. Operaning qisqacha mazmunini ya’ni librettosini Komil Yashin yozgan. Unda ikki tuzim qarama-qarshiligi, xalqlar orasidagi do‘slik aniq o‘z aksini topgan. Operadagi asosiy qahramonlar bu-xalq. Xalq Bo‘ron boshchiligidagi podshoh tuzimiga qarshi kurashadi. Shubhasiz, bosh qahramon xalq bo‘lganligi sababli ommaviy sahnalar muhim ahamiyatga ega, har bir pardaning avjini xalq sahnalarini tashkil etadi. Opera xorlarida kuy materiali ko‘proq “sitatali” bo‘lib, u xalq kuylari va Hamza qo‘schiqlaridan olingan. Opera 5 pardadan iborat, masalan, 1-pardadagi dehqonlar xori Hamzaning “Ishchi bobo”, 2-pardanining final sahnasida “Biz ishchimiz” qo‘shib‘i yangraydi. Asarda xalq musiqa ijodiyoti namunalari orqali gavdalantirilgan lavhalar muvaffaqiyatli chiqqan, biroq rechitativlarda musiqa va nutqni ohangga solishda nomuvofiqlik seziladi. Kompazitorlar mazkur asarda dramatik spektaklni musiqalashtirish uslubiga ham barham berdilar. Bu asarda musiqa jo‘r bo‘libgina qolmay, balki tashkiliy ahamiyat kasb etadi. Ariyalar oddiygina iじro etiladigan qo‘schiq sifatida emas, balki qahramon obrazini yorituvchi vosita bo‘lib keladi. Oddiygina misol, bosh qahramon Bo‘ronda ariyalar uncha ko‘p bo‘lmasada, lekin bor ariyalar obrazlari xarakterlarini yaratishda salmoqli musiqiy asarlar jumlasiga kiradi. Bundan tashqari juda ko‘p xalq qo‘schiqlaridan foydalanilgan. Jumladan, “Gul o‘yini”, “Giryu qozoq”, “Chamanda gul”, “Tanovar”, “Oq oydin kechalar”, “Farg‘onacha”lar kompazitorlar tomonidan orkestrlashtirilib, asar mazmunini boyitishga sababchi bo‘lgan.

Operaning qisqacha mazmuni: Boydan qarzdor bo‘lgan Bo‘ron ismli dehqon yerlarini tortib oladilar. Lekin shu vaqtida Bo‘ron Jo‘ra ismli o‘g‘lini Norgulga uylantirishi kerak edi. Yon qo‘snilari Bo‘ronga moddiy yordam berib to‘yni boshlaydilar. To‘y avjida mahalliy amaldorlar kelib, o‘zbek yigitlarini bashqa shaharlarga “Mardikorlikka” jo‘natmoqchi bo‘ladilar. Lekin eng qiziq va yomon joyi shundaki, amaldorlar o‘z farzandlarini qoldirib, kambag‘allar bolalarini jo‘natmoqchi bo‘ladilar. Dehqonlar bu vaziyatga tik qarab tura olmay, ularga qattiq qarshilik ko‘rsatib, o‘nboshini o‘ldiradilar. Bo‘ron boshchilik bir guruh otryad toqqa chiqib ketadi va ularga Bo‘ronning o‘g‘li Jo‘ra ham qo‘shiladi. Podshoh tomonidan yuborilgan qo‘snilar qishloqqa hujum qiladilar va qishloqda ancha qon to‘kiladi, shular qatorida Norgul ham nobud bo‘ladi. Bo‘ronning hovlisiga o‘t qo‘yadilar. Shu vaqtida Bo‘ron boshchilik oyryad qishloqqa kirib kelib, podshoh qo‘snilarini qishloqdan quvib yuboradi.

“Bo‘ron” operasi bilan deyarli bir vaqtida Alisher Navoiy dostoni asosida “Layli va Majnun” operasi ustida ish olib borildi. 30-yillarda “Layli va Majnun” musiqali drama sifatida namoyish etilgan edi. Musiqali dramadan operaga o‘tish oson bo‘lmadi. Barcha kuylarning materiallarini T. Sodiqov, N. Mironovning hamkorligida yozdi. Keyin esa musiqali dramaning partiturasini ustida ishlashga Glier ham jalb etildi Tomoshabinlar e’tiborini qozongan bu asar qaytadan ishlanib operaga aylantirildi. Librettosiga juda ko‘p voqealar kiritildi. Ushbu asar musiqa tuzilishiga ko‘ra o‘zbek musiqali dramasi an’analarini davom ettirdi. Operaning asosi yakka kuylashdan iborat bo‘lib, ansambl va xorlar kam o‘rin egallagan. Orkestr ko‘proq xonandalarga jo‘r bo‘ladi. Ariyalar og‘zaki an’anadagi kasbiy musiqa namunalariiga asoslangan. Operada musiqiy tavsiflar kam, emotsiyonal jihatdan bir rejalligi mazmuni va musiqa rivoji sustroq bo‘lganligiga qaramay, “Layli va Majnun” operasi tinglovchilar e’tiborini qozondi. Asar partiturasida mavjud bo‘lgan qisman opera dramaturgiyasi elementlari o‘zining milliy badiiy an’analar bilan uzviy bog‘langanligi uchun qimmatlidir. Shunday qilib, rus va o‘zbek kompozitorlarining hamkorligida yaratilgan birinchi opera “Bo‘ron” va “Layli va Majnun” o‘zbek musiqa teatrining keying rivojiga asos bo‘ldi, zamonaviy professional san’ atning murakkab janrlarini o‘zlashtirishga yordam berdi. O‘zbek musiqali teatri o‘zining o‘n yillik (1929-1939) faoliyati davomida musiqali etnografik ansambllardan musiqali nomerlarga ega dramatik spektakllar orqali musiqali drama hamda undan operagacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi.

O‘zbek opera san’ati turmush sharoitlariga ko‘ra, zamon talablariga asosida asta-sekinlik bilan musiqali drama ildizida o‘z rivojini topdi. O‘zbekistonda opera san’atining vujudga kelishi, uni rivojlanishida rus musiqa madaniyatining alohida hissasi borligini ta’kidlab o‘tishimiz lozim. Kompozitorlar V.A.Uspenskiy, R.M.Glier, A. Kazlovskiy, G. Mushel va boshqalar o‘zbek musiqa san’atining turli janrlarida, jumladan, opera janrida ham ijod qilganliklari sababli, o‘zbek opera san’atini yana ham boyiganini ko‘rshimiz mumkin.

Yangilanayotgan yurtimizda O‘zbek operalarining dunyoga kelishi bu zamon talabi bo‘lib, Respublikamizning madaniy rivojiga yana bir katta qadam hisoblanadi.

#### Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

- 1) Пеккер Я. “Узбекская опера” Москва, 1984.
- 2) Murodova. D “Mustaqillik davri o‘zbek kompozitorlik ijodiyoti to‘g‘risida-musiqa ijodiyoti masalalari” Toshkent, 2002.
- 3) Jabborov. A “O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari” Toshkent, 2004.
- 4) T. Y. Solomonova “O‘zbek musiqasi tarixi” Toshkent, 1981.
- 5) Rauf Qodirov “Ommabop musiqiy glossariy” Toshkent, 2016.
- 6) Rustam Abdullayev “Opera dramaturgiyasi” Toshkent, 2007.
- 7) Plungyan. V “Maysaraning ishi” S.Yudakov Toshkent, 1991.
- 8) J.Saidov. O‘zbek opera san’atini shakllanish asoslari. Magistr ilmiy maqolasi BuxDPI-2021
- 9) 9. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part IIIISSN 2056-5852.
- 10) 10. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.
- 11) 11. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
- 12) 12. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.

- 13) 12. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
- 14) 13. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy faoliyati. THE MULTIDISCIPLINARE JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY,VOLUME-3, ISSUE-4,ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,2023-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2023, 14-19.
- 15) 14. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.
- 16) 15. Nurullayev F.G. Rustamov F.T. Education Of A Child By Music In The Early Period Of Life. Spectrum Journal of Innovation Reforms and Development, volume 22,December2023,ISSN(E):2751-1731.
- 17) 16. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
- 18) 17. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139.
- 19) 18. Nurullayev F.G., Madrimov B.K., Rajabov T.I. Teaching Bukhara Children Folk Songs in Music Lessons as an Actual Problem. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 04, 2020 P. 6049.
- 20) 19. Нуруллаев Ф.Г., Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 588-593.
- 21) 20. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
- 22) 21. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children.European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume | Issue 5| ISSN:2795-8612 . Accepted 14 May2022.
- 23) 22.Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
- 24) 23.Nurullaeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folklor music in the upbringing of children of preschool age. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.
- 25) 24. Фаррух Гайбулоевич Нуруллаев. Интерактивные уроки музыки по программы Steam// Science And Education Scientific Journal, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, January 2022.595-602.
- 26) 25.Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.

- 27) 26. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся// Научно – методический журнал «Проблемы педагогики». №3 (48). - Москва 2020.- С.15-17.
- 28) 27. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children. European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612. Accepted 14 May2022.
- 29) 28.Nurillaev F.G. Results of Experimental Work on Teaching Bukhara Folk Songs in Music Education and their Effectiveness. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Special Issue on Modern Trends in Science, Technology and Economy.P.106-109.Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470
- 30) 29. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике// Science And Education Scientific Journal, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, January 2022.589-595.
- 31) 30.Nurillaev Farrukh Gaynullaevich- The technology of organizing the aesthetic education of students by means of folk songs. European Chemical Bulletin (Scopus-Q3) ISSN2063-5346. 2023, 12 (Special Issue7), 1987-1996